



JAHON SAVDO TASHKILOTINING MILLIY IQTISODIYOTLAR INTEGRATSIYALASHUVIGA TA'SIRLARI

I.f.n. **Sodikov Zokir Rustamovich**
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya. Annotatsiya: Ushbu maqolada global miqyosda faoliyat olib borayotgan va xalqaro bozorning rivojlanishida muhim rol o'ynayotgan Jahon Savdo Tashkilotining vujudga kelish tendensiyasi va uning mamlakatlarni xalqaro savdodagi faoliyatini jadallashtirishga ta'siri tadqiq qilingan. Zero, bugungi kunda bu tuzilmada 164 ta a'zodan iborat ishtirokchilar faoliyat olib borayotgan bo'lib, ular jahon savdosining 95%dan ortiq qismini amalga oshirmoqda. Shu bois bunday tizimning shakllanish va rivojlanish tendensiyasi muntazam ravishda tadqiq qilinishi va erishilayotgan natijalar hamda kelib chiqayotgan muammolar ko'rsatilib, tahliliy xulosalar qilib borilishi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Jahon savdo tashkiloti (JST), milliy iqtisodiyot, eksport, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro savdo, integratsiya, iqtisodiy salohiyat.

ВЛИЯНИЕ ВСЕМИРНОЙ ТОРГОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НА ИНТЕГРАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

К.э.н. **Соди́ков Зоки́р Руста́мович**
Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация. В данной статье исследуются тенденция создания Всемирной торговой организации, действующей в глобальном масштабе и играющей важную роль в развитии международного рынка, и ее влияние на ускорение деятельности стран в международной торговле. Сегодня в этой структуре активно действуют 164 члена организации, и на их долю приходится более 95% мировой торговли. Поэтому исследование тенденций формирования и развития данной системы, основных результатов деятельности и проблем возникающих при вступлении в организацию, составление аналитических выводов является актуальной задачей.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация (ВТО), национальная экономика, экспорт, развитые и развивающиеся страны, прямые иностранные инвестиции, международная торговля, интеграция, экономический потенциал.

THE EFFECTS OF THE WORLD TRADE ORGANIZATION ON THE INTEGRATION OF NATIONAL ECONOMICS

PhD **Sodikov Zokir Rustamovich**
International islamic academy of Uzbekistan

Annotation. In this article, the tendency of the creation of the World Trade Organization, which operates on a global scale and plays an important role in the development of the international market, and its influence on accelerating the activities of countries in international trade are studied. Today, 164 members of the organization are active in this structure, and they carry out more than 95% of world trade. Therefore, it is an urgent task to regularly research the trend of the formation and development of such a system, to show the achieved results and emerging problems, and to draw analytical conclusions.

Keywords: World Trade Organization (WTO), national economy, export, developed and developing countries, foreign direct investments, international trade, integration, economic potential.

Kirish.

Bugungi kunda jahon xo'jaligining globallashuvi muntazam ravishda chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning o'zaro integratsiya bo'lishi va bog'liqligi izchil ravishda ortib bormoqda. Mazkur jarayonlarda axborot texnologiyalari va internet tizimi vositachiligida Jahon savdo tashkilotining mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga va milliy xo'jaliklarda aholi turmush farovonligini oshirishga qo'shayotgan xizmatining mohiyatini ochib berish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi. Ayni paytda, bu maqsadga erishish uchun qator vazifalar bajarildi. Xususan, JSTning tashkil etilishi bilan mamlakatlarning global savdo tizimiga integratsiyalashuvi, JSTning asosiy tamoyillari va axloq kodeksi, Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon yalpi ichki mahsulotlarida ulushining o'zgarish tendensiyasi, ularning eksport hajmlari va jahon eksportida ulushining dinamikasi, shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalaridagi ulushi va hajmi tahliliy jihatdan tadqiq qilindi. Jahon savdo tashkiloti global iqtisodiyotdagi faoliyati va qamrovi bilan milliy iqtisodiyotlarning eksport salohiyatini oshirishga va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etishni jadallashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan 160 dan ortiq mamlakatlar bozorini yagona mexanizm asosida birlashtirgan tuzilma hisoblanadi.

Mavzuni o'rganish jarayonida ilmiy-uslubiy asoslardan va xalqaro tuzilmalarning statistik materiallaridan foydalanilib, JSTning faoliyati natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati izchil ortib borayotganligi va eksport imkoniyati mustahkamlanayotganligi asoslangan.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon savdo tashkilotining shakllanish asoslari, faoliyatlari va uning rivojlanish tendensiyalari mavzusini turli jihatlar va shart-sharoitlar bo'yicha tadqiq qilish har soha va tarmoq nuqtayi-nazaridan dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu tashkilot doirasida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni va muammolarni o'rganish tadqiqot yo'nalishi sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan bu borada mamlakatimizning salohiyatli mutaxassis-olimlari va tadqiqotchilari tomonidan turli aspektlar bo'yicha ilmiy izlanishlar va o'rganishlar olib borilayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, "Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish jarayoni hamda uning qonuniy asoslari (Ismailova va boshqalar, 2021)" mavzusida jarayonning tashkiliy jihatlari va huquqiy asoslari tahliliy tadqiq qilinib, o'ziga xos xulosalar keltirilgan bo'lsa, "O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi nimani anglatadi (Fayzulloyev, 2023)" mavzusida tizimga kirish va jarayonning qanday vaziyatlarga olib kelishi tahliliy asosda yoritilgan, shuningdek, "Jahon savdo tashkilotiga a'zolikning mamlakatlar tashqi savdosi uchun afzalliklari (Ismailova, 2022)" mavzusidagi maqolada esa bu tashkilotga kirishning milliy tashqi savdoga ta'sirlari tahlil qilingan hamda ilmiy asosga ega xulosalar o'rta tashlangan. Lekin tadqiqotlarda mazkur tuzilmaning jahonda milliy iqtisodiyotlarning integratsiyalashuviga ta'sirlari va uning tendensiyasi yetarli darajada o'rganilmaganligi bois ushbu maqolada ana shu jihatlar tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

JST tashkil etilganidan keyin global savdoni liberallashtirish va uni institutsional doirada rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilgan. Biroq, JSTning ko'p tomonlama savdo siyosati uchun asos yaratish, ziddiyatlarni samarali tarzda bartaraf etish va jarayonlarni muntazam nazorat qilish asosida maqsad qilingan erkinlashtirish muvaffaqiyatlariga yetarli darajada haligacha erishilmagan. Ikkinchi jahon urushidan keyin Bretton-Vuds institutlari deb nom olgan Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tashkil etilishi orqali xalqaro moliya sohasidagi hamkorlik aloqalari shakllantirilishi bilan bir qatorda dunyo miqyosida xalqaro savdoni erkinlashtirish borasida 1947-yilda GATT, ya'ni, Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (umumiy Tariflar va savdo bitimi) to'g'risidagi shartnoma tuzilgan bo'lib, unda mamlakatlararo tovarlar savdosining ko'p tomonlama erkin harakatini ta'minlaydigan qoidalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, GATT doirasida uzoq yillar mobaynida olib borilgan muzokaralar raundlari natijasida 1994-yilda Jahon savdo tashkiloti (JST) tashkil etildi.

Mazkur tadqiqot jarayonida JSTning tashkil etilishi, uning tashkiliy tuzilishi, asosiy tamoyillari va faoliyati bilan bir qatorda global iqtisodiyot va uning xalqaro savdo tizimiga oid asosiy mulohazalar va kuzatishlar bayon qilinadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, GATTni vujudga kelishidan boshlab JSTni tashkil etilishigacha bo'lgan jarayonlar tahlil qilinib, undan keyin jahondagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning GATT va JSTga a'zoligi hamda JSTning eng muhim funktsiyalaridan bo'lmish ziddiyatlarni va nizolarni hal qilish mexanizmi ko'rib chiqildi. Shu asosda global savdo tizimi va uning rivojlanishiga taalluqli fikr-mulohazalar va xulosalar o'rta tashlangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda jahon savdosining 95 foizini qamrab olgan va 164 ta davlat a'zosi bo'lgan JSTning tashkil etilganidan buyon o'tgan qariyb 30 yil mobaynida, global savdo tizimining faoliyatida sezilarli yutuqlarga erishildi. Lekin, xalqaro savdo bilan bog'liq ayrim vaziyatlar va jarayonlarda erkinlashtirishning kutilayotgan natijalari yuzaga chiqmaganligi to'g'risida mulohazalar mavjud.

Global hamjamiyatda 20-asrda birinchi jahon urushidan chorak asr o'tib insoniyat uchun mislsiz fojia bilan yakunlangan Ikkinchi jahon urushi tinchlik va osuda hayot uchun zarur bo'lgan muhitni ta'minlashga qaratilgan harakatlar barbod bo'lganligini va yangi tizim yaratish muhim ahamiyat kasb etishini namoyon qildi. Qolaversa, xalqaro hamkorlik va birdamlik nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarida, hatto fan va ta'lim sohalarida dolzarbligi va eng ustuvor vazifa ekanligi borasida yakdil to'xtamga kelingan.

Xalqaro hamjamiyatning ikkinchi jahon urushining salbiy oqibatlaridan xalos bo'lish maqsadida o'tkazgan Bretton-Vuds konferensiyalarining eng muhim natijalaridan biri bu 1947-yilda tuzilgan Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT - The General Agreement on Tariffs and Trade) hisoblanadi. Zero "Bojxona tariflari va boshqa xalqaro savdo to'siqlarini pasaytirish" maqsadida tuzilgan GATT bu Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF) va Jahon banki bilan birgalikda global iqtisodiy tizimning uchta eng muhim tuzilmalaridan biri bo'lgandir.

Ma'lumki, GATT doirasida tashkil etilgan global savdo tizimi bir qator savdo muzokaralari va raundlar orqali ishlab chiqilgan tizim hisoblanadi. Zero, GATT muzokaralari boj tariflarini pasaytirish mavzusi bilan boshlanib, keyin jarayonga antidemping va notarif choralar kabi usullarni ham qamrab olgan mexanizmdir.

Jahon amaliyotida GATTning 1986-1994-yillar mobaynida o'tkazilgan Urugvay raundi natijasida 1995-yil 1-yanvarda tashkil etilgan Jahon savdo tashkiloti (JST) eng yosh xalqaro tashkilotlardan biri bo'lsa-da, Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvning vorisi hisoblanadi. Shu bois, GATT doirasida tashkil etilgan ko'p tomonlama savdo tizimi 70 yildan ortiq tajribaga ega tizim hisoblanadi.

Zero, global savdo tizimida beqiyos o'sish kuzatilgan so'nggi 70 yil ichida jahonda tovarlar eksporti yiliga o'rtacha 6% ga o'sganligi qayd etilgan. Global savdodagi bu o'sish umumiy iqtisodiyotning kengayishi va o'sishi uchun kuchli lokomotiv vazifasini bajargan. Xususan, xalqaro savdo global iqtisodiyotdan har yili o'rtacha 1,5 barobar ustunroq o'sganligi qayd qilingan. Aynan statistik ma'lumotlarga binoan jami global eksport hajmi 2019 yilda 1948 yildagi ko'rsatkichdan 250 baravarga ortganligi qayd etilgan.

GATT va JST misli ko'rilmagan darajada global savdoning o'sishiga hissa qo'shgan kuchli va samarali savdo tizimini yaratishga sababchi bo'lgan tuzilma hisoblanadi. Jahondagi ko'plab mamlakatlar GATTning Urugvay raundida ishtirok etib, yakunida Marokashda JSTni tashkil etish to'g'risidagi bitimni ma'qullashgan va ular JSTning ta'sischi a'zosi sifatida qabul qilingan.

JSTning eng asosiy maqsadi - bu global savdoni erkinlashtirish va teng sharoitlarda raqobat muhitini yaratish uchun barcha a'zo davlatlarga xos xalqaro savdo tizimini qayta ko'rib chiqish orqali global tartibni ta'minlashdan iboratdir.

JSTning asosiy tamoyillari orasida eng qulay davlat rejimi, shaffoflik tamoyili, maslahatlashuv va nizolarni hal qilish, o'zaro hamkorlik va muzokaralar tamoyili mavjud. Muzokaralar tamoyilga ko'ra, ta'sis va asosiy kelishuvi sifatida tavsiflangan JST bitimining, amalga oshirish jarayonida kerak bo'lgan vaziyatda mazmunni aniqlashtirilishi, yangi ehtiyojlar va tushunchalarga ko'ra takomillashtirilishi yoki ishlab chiqilishi doirasida, JST a'zolari tomonidan olib boriladigan muzokaralarda ilgari suriladi.

JSTning eng muhim tamoyillaridan biri bo'lgan eng qulay davlat rejimi ro'yxatidan o'tkazishning esa ikkita majburiyati mavjuddir. Birinchidan, a'zo davlat, hech bo'lmaganda bitta a'zo davlatga bergan qulayliklarni yoki imtiyozlarni boshqa a'zo mamlakatlarga ham so'zsiz yoki bir xil shartlar asosida darhol qo'llashi kerak bo'ladi. Ikkinchidan, a'zo davlat uchinchi tomonlarga nisbatan qo'llagan qulay qoidani boshqa a'zo mamlakatlarga ham darhol qo'llashi talab etiladi.

JSTning axloq kodeksi doirasida, barcha a'zo davlatlar dempingga, subsidiyalarga va miqdoriy cheklovlarga, ya'ni. notarif to'siqlarning barcha shakllariga qarshi taqiq qo'yadilar.

Bundan tashqari, milliy amaliyot tamoyili qo'llaniladi. Shunga ko'ra, milliy savdoga oid qonunchilik va amaliyot nuqtayi-nazaridan mahalliy va import tovarlari o'rtasida hech qanday farq bo'lishi mumkin emas.

Davlat mulkiga asoslangan iqtisodiyotlarning bozor iqtisodiyoti bilan birga yashashi raqobat muhitini buzmasligini kafolat ostiga olish maqsadida "Davlat savdosi"ning tenglik asosida amalga oshirish ham JSTning axloq kodeksi yoki xatti-harakatlar qoidalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro savdoni institutsionallashtirilishda va nizolarni hal etilishida muhim yutuqlarga erishgan Urugvay raundi natijasida tashkil etilgan JSTning nizolarni hal qilish mexanizmi global savdoning muammosiz oqimini ta'minlashda muhim vazifani o'z zimmasiga olgan. O'tmishdan hozirgacha JSTga a'zo barcha mamlakatlar manfaat ko'rib kelayotgan ziddiyatlarni bartaraf qilish mexanizmi 2019 yildan beri o'z vazifasini bajarolmayotganligi tufayli bu borada faoliyat qoidalarini yangitdan belgilanishi muhimligi va dolzarbligi turli axborot vositalarida bayon etilgan.

JSTda islohot bo'yicha muhokama qilinadigan mavzulardan biri bo'lgan va mamlakatlar uchun ustuvor ahamiyatga ega hisoblangan masala 12-Vazirlar konferensiyasida kun tartibiga kiritilib, 2 yil mobaynida nizolarni hal qilish tizimining barcha a'zo mamlakatlarga oid yangitdan faol holatga keltirilishiga doir zarur muhokama va tadqiqotlarni o'tkazish majburiyati belgilangan.

JSTda 2023-yil yanvar oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari eng ko'p shikoyat qiluvchi mamlakatlar sifatida namoyon bo'lgan. Shunga ko'ra, AQSh tomonidan berilgan shikoyatlar soni va shikoyat qilingan murojaatlar soni mos ravishda 124 ta va 157 ta, Yevropa Ittifoqi esa 110 ta va 91 ta bo'lgan. 2001 yilda JSTga a'zo bo'lgan Xitoyning esa 23 ta shikoyati va 49 ta shikoyat murojaati bo'lgan. Mazkur belgilangan davr mobaynida Turkiya oltita holatda ziddiyatlarni hal qilish borasida shikoyat qilgan bo'lsa, o'n ikkitasida shikoyat qilingan mamlakat sifatida jami 18 marta shikoyat masalasida qayd etilgan. Bu shikoyatlardan sakkiztasi maslahatlashuv bosqichida hal qilingan bo'lsa, qolganlari esa kengashga kiritilgan. Bundan tashqari, Turkiya jami 106 ta nizoda uchinchi tomon sifatida ishtirok etgan.

Mintaqaviy hamkorlikka asoslangan milliy iqtisodiyot va uning sektorlarini himoyalashga yo'nalgan proteksionistik siyosatdan iborat aralash tizim Bretton-Vudsdan o'rnatilgan ko'p tomonlama liberallashtirish tizimining o'rnini egallamoqda.

Jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) uzoq yillar mobaynida Rivojlangan mamlakatlar zarariga o'zgarib bormoqda. Keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi 20 yil mobaynida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada yaqinlashib bormoqda. Qayd etilgan davrda jahon yalpi ichki mahsulotida rivojlangan mamlakatlarning ulushi 78,8% dan 57,8%ga, ya'ni, 21%ga kamaygan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi 21,2%dan 42,2%ga, ya'ni, ikki baravarga ortganligini ko'rish mumkin.

1-jadval

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon yalpi ichki mahsulotlaridagi ulushi (joriy baholarda % da)²⁷

Mamlakatlar	2001	2011	2021
Rivojlangan	78,8	68,5	57,8
Rivojlanayotgan	21,2	31,5	42,2

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon jami eksportidagi ulushi uzoq yillar mobaynida muntazam ortib borayotganligi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2001-yilda jahon umumiy eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi taxminan 2 trln. AQSh dollarini, rivojlangan mamlakatlarniki esa 4,1 trln. AQSh dollarini tashkil qilib, ularning jahon eksportidagi nisbiy ulushi mos ravishda 33% va 68% ga teng bo'lgan.

2-jadval

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport hajmlari (trln.AQSh \$)²⁸

Mamlakatlar	2002	2008	2014	2018	2021
Rivojlangan	4,1	9,2	9,7	9,9	10,8
Rivojlanayotgan	2,0	6,8	9,2	9,4	11,3

²⁷ IMF. (2023, 15-yanvar). World Economic Outlook Database

²⁸ ITC Trademap. (20-yanvar, 2023.). <https://www.trademap.org/Index.aspx>

Jahon xo'jaligida muntazam ravishda globallashuv jarayoni shiddat bilan avj olib borayotgan 2020 yilga kelib, har ikkala toifa o'rtasidagi farq keskin darajada qisqarib, o'zaro tenglashish tendensiyasiga ega bo'lganligini kuzatish mumkin. Xususan, 2021-yil natijalariga ko'ra jahon eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning salohiyati 11,3 trln. AQSh dollarini, rivojlangan mamlakatlarniki esa 10,8 trln. AQSh dollarini tashkil qilgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar 500 mlrd. AQSh dollari darajasida ortiqcha eksport qilgan.

Shuning uchun keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra jahon eksportida 2021-yilda birinchi marta rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi rivojlangan mamlakatlar ulushidan ortib ketgani qayd qilingan. Jumladan, 2021-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning jami eksporti 11,3 trln. AQSh dollari, rivojlangan mamlakatlarning eksporti 10,8 trln. AQSh bo'lib, ularning jahon eksportidagi ulushi mos ravishda 50,9 va 49,1 foizni tashkil etgan.

3-jadval

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning jami jahon eksportidagi ulushi²⁹ (%)

Mamlakatlar	2001	2002	2008	2012	2014	2018	2020	2021
Rivojlangan	67,4	67,2	57,5	51,4	51,3	51,3	50,9	48,9
Rivojlanayotgan	32,6	32,8	42,5	48,6	48,7	48,7	49,1	51,1

Jahon savdosida mamlakatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri ularning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardagi ulushida namoyon bo'ladi. Global hamjamiyatda 1995-yildan buyon rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon miqyosidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardagi ulushining o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lsa-da, rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi ulushida davriy ravishda jiddiy o'sish emas, balki, pasayish tendensiyasi kuzatilmogda.

Mazkur jarayonning global miqyosdagi tendensiyasidan ko'rinib turibdiki, 2014-yilda jahon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmida rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi qariyb rivojlangan mamlakatlar ulushiga tenglashib, uning hajmi 49,1% ni tashkil etgan.

2020-yilda butun dunyo miqyosida 35 foiz darajasida qisqarish hisobiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 936 mlrd. AQSh dollariga tushgan va natijada rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi 66,9 foizga yetgan. Ayni paytda 2021-yilda jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 64 foizga o'sib, 1,6 trln. AQSh dollarini tashkil etgan va unda rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi esa 52,9 foizga teng bo'lgan.

4-jadval

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardagi ulushi³⁰ (%)

Mamlakatlar	2005	2010	2015	2018	2019	2020	2021	2022
Rivojlangan	66,2	54,6	50,9	49,3	58,5	32,8	40,4	29,2
Rivojlanayotgan	33,8	45,4	49,1	50,7	41,5	67,2	59,6	70,8

Jahonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi borasidagi ma'lumotlarga ko'ra mamlakatlar guruhlari bo'yicha so'nggi 20 yil mobaynidagi o'zgarish tendensiyasi ko'zga tashlanmogda. Shu bois taraqqiy etayotgan bozorlar va rivojlanayotgan mamlakatlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari miqdori o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ular boshqa mamlakatlar guruhlariga qaraganda global inqirozdan va COVID-19 epidemiyasidan nisbatan kamroq zarar ko'rgan.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning va yuksalib borayotgan bozorlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari miqdori 15 yil mobaynida 3 baravariga ko'paygan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlar va umuman dunyoning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari miqdori qariyb ikki baravariga oshgan.

2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ng, ayniqsa G20 mamlakatlarida tobora kuchayib borayotgan proteksionistik siyosat va amaliyotlarga e'tibor qaratilmogda. G20 mamlakatlari savdosiga ta'sir qiluvchi chora-tadbirlar va amaliyotlar JST tomonidan yiliga ikki marta e'lon qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish usullari va instrumentlarida ham, ularni

²⁹ ITC Trademap. (20-yanvar, 2023.). <https://www.trademap.org/Index.aspx>

³⁰ World Investment Report (2022) <https://unctad.org/data-visualization/global-foreign-direct-investment-flows-over-last-30-years>.

qamrab olgan hududlarida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ular orasidagi proteksionistik choralar savdoni qulaylashtiradigan choralardan ustun hisoblanadi.

5-jadval

Mamlakatlar toifalariga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi³¹
(mln. AQSh \$)

Yillar	Jahon	Rivojlangan iqtisodiyotlar	Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar
1990	204887,7	171279,5	33608,23
2000	1356685	1133974	222711,3
2005	954072,5	631232,2	322840,3
2010	1393014	760395,1	632619,1
2015	2056416	1310140	746276,5
2016	2003454	1343604	659849,7
2017	1644872	943166,5	701705,4
2018	1375437	678199,8	697237,1
2019	1707830	998715,8	709114,3
2020	961983,2	315461,3	646521,9
2021	1478137	597242,8	880894,2
2022	1294738	378320,3	916417,9

2020-yildan boshlab JSTi a'zolari tomonidan, ayniqsa, eksport bo'yicha yangi cheklovlarni amalga oshirish sur'ati avvaliga pandemiya, keyin ayrim mintaqadagi notinchlik va oziq-ovqat xavfsizligi inqirozi tufayli jadallashgan. Ushbu eksport cheklovlarining bir qismi asta-sekin olib tashlangan bo'lsa-da, oziq-ovqat, ozuqa va o'g'itlarga eksport cheklovlarining 44 foizi va pandemiya bilan bog'liq eksport cheklovlarining 63 foizi G20 mamlakatlari tomonidan davom ettirib kelinmoqda.

Uzoq yillardan beri mintaqaviy savdo bitimlari soni ortib bormoqda, buni keltirilgan ma'lumotlar asosida ko'rish mumkin. Jahon hamjamiyatida 2023 yil fevral holatiga ko'ra jami 355 taga yetgan mintaqaviy savdo bitimlari sonining ko'payishi bilan bir qatorda, ularning butun dunyo bo'ylab tarqalishi va rivojlanishi ham diqqatga sazovor jarayon hisoblanadi. Ko'pgina mintaqaviy savdo bitimlari Yevropada, undan keyin Osiyo va Amerikada (xususan, Janubiy Amerikada) tuzilgan.

Bundan tashqari, JSTning tashkil etilishi bilan importga nisbatan joriy etilgan tarif stavkalarining pasayishi kuzatildi. Yana bir e'tiborga molik masala, bu, so'nggi yillarda nafaqat mintaqaviy savdo bitimlari soni ko'paydi, balki ularning qamrovi ham kengaydi va yaxshilandi. Global iqtisodiyotda kun tartibi va savdo siyosatining o'zgarishi bilan mintaqaviy yoki ikki tomonlama kelishuvlar qoidalari kengayib, sarmoya, intellektual mulk huquqlari, raqobat va atrof-muhit, shuningdek, tariflarni pasaytirish kabi mavzularni qamrab olmoqda.

Iqtisodiy diplomatiyaning vositalaridan biri hisoblangan raqobatbardosh axborot tashqi savdoga va uning rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahondagi mamlakatlar, muassasalar, korxonalar turli iqtisodiy jarayonlarni boshqarish maqsadida axborotga va ma'lumotlar tahliliga oid strategiyalarni ishlab chiqadi. Zero, raqobatchilardan ajralib turish va ulardan bir qadam oldinda bo'lish uchun trendlar tez-tez o'zgarib turadigan bugungi kunda ma'lumotlarni qo'lga kiritish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tahlil qilinayotgan ma'lumotlar (mamlakatlar, muassasalar, korxonalar) qisqa, o'rta va uzoq muddatli strategik harakatlar va tadbirlar orqali amaliyotda qo'llanilishi kerak bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning tashqi savdodan maqsadi inobatga olinganda eksport hajmini oshirish va global savdo jarayonidan ko'proq ulushga ega bo'lish uchun tashqi savdoda qo'llaniladigan raqobatbardosh axborotlar katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois raqobatbardoshlikni qo'lga kiritilishi va rivojlantirilishi eksportni yuksaltirish uchun majburiyatga aylangan. Afsuski, raqobatbardoshlik darhol erishib bo'ladigan vaziyat emas. Raqobatbardoshlikni shakllantirish keng va qamrovli strategiya orqali uzoq muddatli transformatsiya jarayonini talab etadi.

³¹ World Investment Report (2022) <https://unctad.org/data-visualization/global-foreign-direct-investment-flows-over-last-30-years>.

Rivojlangan iqtisodiyotlarning barcha turli-tuman strategiyalari bitta maqsadga xizmat qiladi, ya'ni, ularning global savdo jarayonidan ko'proq ulush olishiga zamin yaratishga. Ana shu maqsadda raqobat kuchli bo'lgan xalqaro bozorlar to'g'risida to'plangan ma'lumotlar, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy etilishi muvaffaqiyatli biznes yuritishning asosiy strategiyasini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda ma'lumotlarni qo'lga kiritish juda osonlashdi, ammo aniq ma'lumotlarga erishish va ularni tahlil qilish uchun turli xil ma'lumotlar manbalaridan foydalanish kerak bo'ladi. Shu sababdan ham bu jarayonlarning barchasini qamrab oluvchi "raqobat axboroti"ning bugungi kun iqtisodiyotida ahamiyati muntazam ortib bormoqda. O'tmishdan hozirgi kungacha barcha davlatlar raqobatbardosh axborot masalasida turli usullardan foydalanganlar. Bugungi kunda o'z kuchini saqlab qolgan bu usullarga kun sayin rivojlanayotgan texnologiyalar natijasida yangilari ham ilova qilinmoqda.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqotda GATT shartnomasi tuzilgandan JST tashkil etilgandan buyon mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining yalpi ichki mahsuloti, eksporti va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari rivojlanish tendensiyasiga ko'ra, jahon savdo tizimi va uning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga ta'siri borasida asosiy mulohazalar bildirildi.

Shu nuqtayi-nazardan, ayniqsa, JST tashkil etilgandan so'ng jahon savdosidagi asosiy cheklolar olib tashlanishi natijasida uzoq yillar mobaynida rivojlanayotgan mamlakatlar eksport salohiyatini oshirish va yalpi ichki mahsulotini ko'paytirish bilan bir qatorda jahon savdosidan ham, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan ham muntazam ravishda o'sib borayotgan ulushini olmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatlar tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda faqat global platformalar bilan kifoyalanmasdan, balki ikki tomonlama yoki mintaqaviy integratsiyaga ham katta ahamiyat bermoqda. Darhaqiqat, ikki tomonlama yoki mintaqaviy integratsiya jarayonlari turi va ko'lami muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, JSTda nizolarni hal qilish mexanizmini isloh qilish borasida boshlangan muhokamalar va uning asosiy funktsiyalari bajarilganligi haqida bo'lgan tanqidlar natijasida mazkur jarayon yanada faollashgan deyish mumkin.

"Yangi normal holat" deb atalgan global savdo tizimini joriy doirada davom ettirishni maqsad qilganlar bilan bir qatorda boshqa jarayonlarni boshlashni ustuvor hisoblovchilar mavjud. Shu bois JSTning ko'p tomonlama savdo tizimidan ajralib chiqmasdan ikki tomonlama va mintaqaviy savdo aloqalarini rivojlantirishda yetakchi bo'lishi kutilmoqda. 1980-yillarning o'rtalaridan boshlab xalqaro savdoni liberallashtirish borasida Ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil etilgan mavjud tizimda muhim o'zgarishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular Bretton-Vudsnig ko'p tomonlama va eng qulay davlat rejimi o'rnini ikki tomonlama va imtiyoz berish tamoyillari egallagan.

Ko'p tomonlama, mintaqaviy va proteksionistik kelishuvlardan iborat aralash tizimda qat'iy aniq bo'lgan yagona narsa bu yangi xalqaro iqtisodiy siyosatning paydo bo'lishidir. Tadqiqotlar natijasida olingan yana bir xulosa shundan iboratki, inson huquqlari, atrof-muhit, salomatlik va energetika kabi global muammolar, ayniqsa iqlim o'zgarishi ham JSTni, hamda mintaqaviy savdo integratsiyalari va kelishuvlarining eng ustuvor va dolzarb masalasi bo'lishi kerak.

Adabiyotlar / Литература / Literature:

Fayzulloev, Sh.J. (2023). O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISHI NIMANI ANGLATADI. ROSSIYA TAJRIBASI: EKSPERT FIKRLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(2), 205–209. <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/10720>

IMF. (2023). *World Economic Outlook Database*.

Ismailova N.S. Uchqun Ro'Zimurod O'G'Li Rashidov, Abror Ro'Zimurod O'G'Li Rashidov (2021) JAHON SAVDO TASHKILOTIGA QO'SHILISH: QO'SHILISH JARAYONI HAMDA UNING QONUNY ASOSLARI // *Scientific progress*. – №. 2.

ITC Trademap. (2023). <https://www.trademap.org/Index.aspx>.

Nilufar, I. (2022). JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIKNING MAMLAKATLAR TASHQI SAVDOSI UCHUN AFZALLIKLARI. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/560>

Sodikov Z.R. (2021) *Globallassuv sharoitida tashqi savdoning rivojlanish tendensiyasi. Monografiya*. –T.: "Complex print", 2021. 84 b.

World Investment Report (2022) <https://unctad.org/data-visualization/global-foreign-direct-investment-flows-over-last-30-years>.

World Trade organisation. (2022). Report on G20 Trade Measures. <https://www.wto.org>